

## **BOSHLANG'ICH SINF TARBIYA DARSALARIDA URF-ODAT VA MAROSIMLARNI O'RGANISHNING AHAMIYATI**

***Qo'ldosheva Parvina Maxmamurodovna***

*Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

***S.Ramazonovna***

*Ilmiy maslahatchisi*

*"Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros, yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu ilmsizlikdir". SH.M. Mirziyoyev.*

Bugungi kunda boshlang'ich sinflarda tarbiya darslarida xalq pedagogikasidan foydalalanishning ahamiyati judda katta.Xalq pedagogikasidan foydalananishning asosiy ahamiyatli jihatlari milliy qadriyatlar, urf odalar, an'analar axloqiy, ma'naviy, estetik va madaniy rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy o'zlikni anglash, ma'naviy tarbiya, amaliy yondashuvlar, xalq o'yinlari, qo'shiqlar va she'rilar, ertak va hikoyalar, xalq ertaklari, maqollar, o'quvchilarda milliy o'zlikni va tarixiy xotirani shakllantirib, bu orqali o'z milliy meroslari bilan faxrlanishni o'rganadilar. O'zbekiston xalqlarining boy va ma'daniy merosi tarixiy an'analarini, urf-odatlarini saqlab qolish uchun katta e'tibor berilmoqda. O'zbekistonda so'nggi yillarda aholining ma'daniy turmushini va ijtimoiy-iqtisodiy turmushini yuksaltirish, urf-odat va marosimlarning xalq pedagogikasidagi o'rni, mavqeini mustahkamlash borasida islohotlar olib borilmoqda. Aholining turmush tarzini va ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini yuksaltirish, urf-odat va marosimlarning xalq pedagogikasidagi o'rni mavqeini mustahkamlash, bugungi kunda yoshlarda yuksak ma'naviy-axloqiy, umumbashariy fazilatlarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalasidir. Farzandlarimizga an'analarimizni, umuminsoniy qadriyatlarimizni, Vatanga sadoqat, irodalilik, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, hurmat ruvida tarbiyalash, tarbiyaviy jarayon ongli, mas'uliyatli faoliyat o'qituvchi va murabbiylarning, ota-onalarning mas'uliyatli vazifasi hisoblanadi. Boshlang'ich sinf tarbiya darslarida o'quvchilarni tarbiyalash, ta'lim berish, psixologik va pedagogik, ma'naviy-axloqiy, jismoniy jihatdan kamolotga yetkazish masalalarini o'rganadi.

Mamlakatimizdagi dolzarb vazifalardan biri, yoshlar ongida Vatanga sadoqat, mehr-oqibatlilik, komil shaxs, aqliy madaniyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya, ajdodlar o'giti, olivjanob, mehribon farzandlarni insonparvarlik, yoshlar ongida singdirilib yurtga sodiq farzandlar qilib tarbiyalashdir. Xalq pedagogikasida xalq og'zaki ijodi, marosimlar, milliy urf-odatlar, qadriyat va an'analar, mehmondorlik, mezonlik qoidalari, mehr-oqibatlilik, irodalilik, mas'uliyatlilik, tolerantlik, innovatsion fikrlash kabi fazilatlarni shakllantirish. Tarbiyaning milliyligiga alohida e'tibor qaratib, xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik mehnat tarbiyasini singdirish.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'PQ – 637 sonli "Ta'lim to'g'risidagi qonuni" qabul qilingan. Yangi O'zbekiston sharoitida tarbiya jarayonlarini takomillashtirib, tarbiyaga oid, tendensiyalar, konsepsiyalarni yaratmoq lozim. Bunday konsepsiylar "Yangi O'zbekiston – marifatli jamiyat" konsepsiyasini jamoatchilikka keng ommaga yetkazishda nihoyatda ahmiyatlidir.<sup>1</sup>

"Konsepsiya" – lotincha so'z bo'lib, biror sohaga oid tamoyillar tizimi ma'nosini anglatadi. Hodisa va faktlarni tushunish – asosiy nuqtai nazar, qarashlari va g'oyalari yig'indisidir. Jamiyatning gullab-yashnashi uchun shaxs ehtiyojiga muvofiq moddiy va ma'naviy boyliklarni

<sup>1</sup> <https://lex//uz//uz/does/5844063>

**Index:** [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

bosqichma-bosqich yaratishdir. Yashab o'tgan ajdodlarimizning moddiy va ma'naviy boyliklar vorisligi meros bo'lib qolgan. Tug'ilib o'sib, ulg'ayib kelayotgan avlod o'tmish tajribalarni o'zlashtirib oladi va chuqurroq boyitadi. Tarbiya bolalarning bir-birlariga hurmat, kichiklarga izzat, kattalarga bo'lgan ehtirom munosabatlarini o'rgatadi.

Mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.A. Karimov sog'lom avlodni tarbiyalash tarixiy zaruriyat, va ijtimoiy burchimiz ekanligini, quydagicha ifodalangan edilar: "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'lomligi emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz".<sup>2</sup>

Tarbiya xususida Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al hosil, tarbiya, bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo falokat, yo saodat, yo falokat masalisidur". Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy, milliy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy etilishi, davlatlarning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq<sup>3</sup>. O'zbek xalqi o'zining ta'lim-tarbiyaga oid ma'naviy merosini yaratib, insoniyatning ko'plab avlodlari mehr-oqibat, mardlik, mehnatsevarlik, umuminsoniy qadriyatlar, odoblik kabi fazilatlar ruhida tarbiyalanib kelinmoqda. Xalqimiz yuragiga yaqin bo'lgan buyuk allomalar Al-Farobi, Imom Al-Buxoriy, Zahriddin Muhammad Bobur, Abdulla Avloniy, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi o'nlab buyuk shoirlar va mutafakkirlar asarlariga ko'p e'tibor berilyapti. Mutafakkirlarning fikricha, maktab va oilada bolaning axloqiy komil inson qilib har tomonlama tarbiyalanishi bilan ajralib turadi. Xalq pedagogikasida milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida ta'lim jarayonida o'quvchilarning axloqiy, ma'naviy-estetik, madaniy rivojlanishini hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yoshlarni ham jismoniy, ham ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalashda milliy qadriyatlarni singdirish orqali o'quvchilar o'zligini anglash, jamiyatda foydali shaxs bo'lish, ular qalbiga tarixni anglash, qadrash, o'tmishga hurmat bilan yondashish, ularni asrab-avaylash, o'z o'rnini topishga ham xizmat qiladi. Ma'naviy jihatdan yaxshi tarbiya olgan shaxs o'z aqli, o'z tafakkuri, o'z mas'uliyati, o'z mehnati bilan ozod fikrli inson bo'lib yashashi uchun xalq pedagogikasi darslarida qo'llaniladigan ma'naviy tarbiyaning muhim vositasi sifatida e'tirof etiladi. Xalq pedagogikasidan foydalanish bolalarning milliy o'zlikni anlashiga, ma'naviy kamolotiga, mustahkam xarakterga ega bo'lish yordam beradi. Dunyoning ko'p mamlakatlarida, jumladan, Rassiya, AQSh, Germaniya, Markaziy Osiyo davlatlarining tadqiqotchi olimlari tomonlaridan xalq pedagogikasidan a'nana, urf-odat va marosimlarni o'rganish yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

"An'ana" arabcha so'zdan olingan bo'lib, uzoq zamondan beri avloddan-avlodga o'tib davom etib kelayotgan urf-odatlar, axloq mezonlari, qarashlarni ifodalaydi. An'ana ajdodlardan avlodlarga meros bo'lib o'tadigan tarixiy taraqqiyot jarayonida ijtimoiy va tabiiy ehtiyojar asosida kishilar ongida singan qabul qilingan tartib, qoidalari majmuidir. An'ana – o'tmishdan kelajakka meros qoladigan, avloddan-avlodga o'tadigan, ma'naviy qadriyat. Bu uzoq vaqtlardan ajdoddan-avlodga o'tib kelayotgan va bizgacha yetib kelgan ko'pchilik tomondan qabul qilingan tartib va qoidalardir. An'ana va urf-odat, marosimlar bir-biriga bog'lanib, ko'pincha urf-odat tushunchasi asosida targ'ib qilinadi. An'analarni milliy, madaniy, diniy, siyosiy, maishiy-ijtimoiy turlari bor. An'analarni yoshlarni tarbiyalashda ham o'rni katta hisoblanadi.

To'xtalishimiz kerak bo'lgan keyingi tushuncha bu –urf-odatdir. Urf-odat o'zida xalq hayotining barcha jihatlarini qamrab oluvchi oddiy kundalik udumlar, rasm-rusum, irim-sirimlar, o'zaro

<sup>2</sup> I.A.Karimov .O'zbekistonning siyosiy -ijtimoiy va iqtisodiy iqtibolining asosiy tamoyillari ."Ozbekiston"1995.57-bet.

<sup>3</sup> Abdulla Avloniy ,Turkiy guliston yoxud axloq -Toshkent .O'qtuvchi -1992.

muomala tarzi kabi barcha marosimlarni butunicha qamrab oladi<sup>4</sup>. Urf-odatlar marosimdan farqli ravishda, ramziy xarakterga ega bo'lmasligi ham mumkin. Shuningdek, har qanday marosim, o'z navbatida, urf-odat ham bo'lishi mumkin. Urf-odatlar hamma zamonlarda kishilar o'rtasidagi munosabatlarni boshqarish uslubi hisoblanadi. Ular insonning xulq-atvorini belgilaydi. Unga o'z xalqi yoki millati turmush tarzini o'rganishdagi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi<sup>5</sup>. Milliy urf odalar va an'analar marosimlar zamirida katta tarbiyaviy imkoniyatlar mavjud zero ularning ajdodlarimizdan qolgan madaniy meros sanaladi. Marosim-an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, inson hayotidagi muhim hodisa yoki a'nana bilan bog'liq bo'lgan hayotiy tadbirdir. Marosimlar, jamiyat, madaniyat va diniy an'analar bilan bog'liq. Navro'z bayramini nishonlash xalq pedagogikasidan u bilan bog'liq urf-odatlar, rasm-rusumlarni, xalq o'yinlarini yoshlari tarbiyasida singdirish. Xalqimiz kelajakda urf-odat va marosimlarda kishilarni hamjihatlikka, mehrli bo'lishga, mehnatsevarlikka umid va ishonch bilan qarashni o'rganganlar. Urf-odatlardan biri – suhbatlar uyuşhtirilgan, ashula va raqlar ijro etilgan. O'zbekning o'zbekona udumlariga rioya qilingan. Islom dinining muqaddas manbalaridan bo'lgan "Quroni Karimdan, hadis va boshqa diniy ta'limotga, odob axloq, diniy marosimlarda namoz, ro'za, nikoh va boshqa diniy amallarni o'rgata borish. Diniy bayramlarimizdan ro'za, Qurban hayiti insonparvarlik xarakteriga ega bo'lgan bayramlar safiga kiradi. Ro'za hayiti Ramazon oyining yakunida nishonlanadi. Ramazon oyining uchinchi kunidan boshlab, eshikma-eshik yurib, "Yo Ramazon" qo'shig'i ijro etiladi. Urf-odatlar va marosimlarda yoshi kattalar ulug'langan. Oilaviy marosimlarda, tug'ilgan kun, nikoh to'yi, sunnat to'yi marakalari, oilada farzand tug'ilishi va tarbiyasi bilan bog'liq marosimlar, ta'ziya va dafn etish bilan bog'liq marosimlar, oilaviy marosimlar, odatda, inson hayotining muhim burilish nuqtalariga o'tkaziladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A.Avloniy "Turkiy Guliston yoxud axloq", T-2018, Yoshlar nashriyoti.  
Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. T., "O'zbekiston", 2000 y  
2.Pedagogika nazaryasi va tarixi 2qism Matn:darslik/Gulchehra Izbullayeva  
Buxoro:"Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona ,2023-224b.  
3.Tarbiya kitobi.K.3:Ibratli rivoyat va hikmatlar/nashrqa tayyorlovchi :MuhammadaminTo'xliyev-Toshkent.:Yurist -media markazi,2019.-160b.  
4. Boshlang'ich Ta'limda tarbiya fanni darslik,60110500-Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabalari uchun.Toshkent-2022.269b.  
5. Рамазонова, С. С., & Корёгдиев, З. О. (2023). XALQ PEDAGOGIKASI TUSHUNCHASINING TAHLILI VA UNING MANBAALAR: Ramazonova Salomat Saidovna Osiyo xalqaro universiteti magistranti, Qoryog'diev Zufar Oxunjonovich Ilmiy rahbar. *Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал*, (8), 198-202.  
6. Saidovna, R. S. (2023). YOSHLARNI MILLIY QADRIYATLAR VA URF-ODATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISHDA OILATA'LIM MUASSASASI VA MAHALLA HAMKORLIGINING AHAMIYATI. *Science Promotion*, 4(1), 279-287.

<sup>4</sup> Sarimsoqov B. Marisim filklari //o'zbek folklori ocherklari /T.1988-B.12

<sup>5</sup> Qayumova G.Ma'naviy qadriyatlar va ularni targ'ib etishning uslub va shakllari .-Buxoro -1997 -B.

*Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.*

[https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as\\_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG](https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG)

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

7. Saidovna, R. S. (2023). XALQ PEDAGOGIKASINING SHAKLLANISHIDA O'RTA OSIYO BUYUK MUTAFAKKIRLARI PEDAGOGIK G'OYALARINING O'RNI. *Science Promotion*, 4(1), 288-294.
8. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIK DAVRIDA KIMLIKNI SHAKLLANTIRISH. The latest news and research in education, 2(1), 114-119.
9. Saidovna, R. S. (2025). YOSHLIK VA RUHIY SOG'LIQ. The latest news and research in education, 2(1), 77-82.
10. Saidovna, R. S. (2025). O'SMIRLIKDAGI STRESS VA UNING PSIXOLOGIK TA'SIRI. The latest news and research in education, 2(1), 83-88.
11. Saidovna, R. S. (2025). IJTIMOIY O'ZARO TA'SIR VA TENGDOSHLAR ROLI. The latest news and research in education, 2(1), 89-94.
12. Saidovna, R. S. (2025). YOSH DAVRLARDA XULQ-ATVOR VA O'ZGARISHLAR. The latest news and research in education, 2(1), 70-76.
13. Saidovna, R. S. (2025). BOLALIK VA O'SMIRLIKDA O'ZLIKNI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 101-106.
14. Saidovna, R. S. (2025). EMOTSIONAL RIVOJLANISH VA O'ZINI ANGLASH. The latest news and research in education, 2(1), 107-113.
15. Saidovna, R. S. (2025). TA'LIM JARAYONIDA YOSHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. The latest news and research in education, 2(1), 95-100.